

MUAMMOLI TA'LIM SHAROITIDA TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Sanoyeva Elinur Amin qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

O'zbek tili va adabiyoti universiteti

Ona tili va adabiyot fakulteti 4-bosqich talabasi

Elinursanoyeva8@gmail.com

[Tel: +998931194922](tel:+998931194922)

Annotatsiya: *Mazkur maqolada adabiyot darslarida muammoli ta'lim asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish masalasi ilmiy-nazariy va metodik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tanqidiy fikrlash tushunchasining pedagogik mohiyati ochib berilib, muammoli ta'lim bilan uzviy aloqasi asoslanadi. Maqolada adabiyot darslari jarayonida muammoli vaziyat va muammoli savollarni yaratish orqali o'quvchilarning tahliliy, mustaqil va bahsga asoslangan fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan bosqichli yondashuv taklif etiladi. Shuningdek, Adabiyot darslarida matn, obraz va g'oyalarni muammoli savollar orqali o'rganish o'quvchilarning tahliliy va mustaqil fikrlashini rivojlantirishi asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *muammoli ta'lim, tanqidiy fikrlash, adabiyot darsi, muammoli vaziyat, muammoli savol, mustaqil fikrlash, innovatsion yondashuv.*

Abstract: *This article analyzes the issue of forming students' critical thinking skills based on problem-based learning in literature lessons from a scientific, theoretical and methodological perspective. The study reveals the pedagogical essence of the concept of critical thinking and substantiates its inextricable link with problem-based learning. The article proposes a step-by-step approach aimed at developing students' analytical, independent and argumentative thinking by creating problem situations and problem questions in the process of literature lessons. It also substantiates the effectiveness of this approach on the example of specific problem situations that can be used in the process of studying samples of Uzbek literature.*

Keywords: *problem-based learning, critical thinking, literature lesson, problem situation, problem question, independent thinking, innovative approach*

Kirish. *Zamonaviy jamiyatda axborotlar hajmining keskin ortib borishi ta'lim tizimi oldiga yangi va murakkab vazifalarni qo'yimoqda. Bugungi o'quvchi faqat tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi emas, balki axborotni tanlab qabul qiluvchi, uni tahlil qila oluvchi va asosli*

xulosalar chiqarishga qodir shaxs bo'lishi lozim. Biroq ta'lim amaliyotida, xususan, adabiyot darslarida o'quvchilarning asar mazmunini qayta bayon qilishi nisbatan oson kechayotgan bo'lsa-da, qahramonlar harakati va muallif g'oyasiga mustaqil baho berishda muayyan qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu holat tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi.

Mazkur muammoni bartaraf etishda muammoli ta'lim muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Muammoli ta'lim o'quvchini tayyor xulosalarni qabul qilishdan ko'ra, izlanishga, fikrlashga va muammoni mustaqil hal etishga undaydi. Ushbu maqolada adabiyot darslarida muammoli ta'lim asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning bosqichli modeli ishlab chiqilib, uning metodik imkoniyatlari yoritiladi.

Tanqidiy fikrlash – bu axborotni chuqur tahlil qilish, dalillarga asoslanib baholash va asosli xulosa chiqarish qobiliyatidir. U o'quvchini tayyor fikrni qabul qilishdan saqlaydi, uni izlanishga, shubha qilishga va solishtirishga o'rgatadi.

Adabiyot darslarida tanqidiy fikrlashning ahamiyati ayniqsa yuqoridir. Chunki badiiy matnni anglash, obrazlarga baho berish va muallif pozitsiyasini tushunish o'quvchidan tahliliy va baholovchi fikrlashni talab etadi. Masalan, bitta badiiy qahramon harakatiga turli nuqtayi nazardan yondashish imkoniyati o'quvchilarda fikrlar xilma-xilligini yuzaga keltiradi va bahs-munozara madaniyatini shakllantiradi. Shu bilan birga adabiyot darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bir necha muammolar ham uchraydi.

- ❖ O'quvchilarning passivligi;
- ❖ Tayyor fikrlarni yodlashga o'rganib qolganligi;
- ❖ Savol berish va fikr bildirishdan qo'rqish;
- ❖ Darslarning an'anaviy, bir xil usulda olib borilishi.

Insonning aqliy salohiyati muammoli vaziyatga tushib qolganda to'laroq namoyon bo'ladi. Muammoli vaziyat oldida o'quvchilar ham o'zlarini har xil tutishi tabiiy. O'quvchi shaxsining intellektual va ruhiy xususiyatlari o'z farazini ilgari surish va asoslashtirishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Polyak olimi V. Okon ta'limda o'quvchi tafakkurini faollashtirmay, tayyor axborot berishga qaratilgan usullar tashabbus ko'rsata olmaydigan shaxslarni shakllantirishini ta'kidlaydi⁹⁷. O'quvchi-yoshlarni mahsuldor va tanqidiy fikrlashga o'rgatish yo'llarini izlash natijasida ta'limning evristik metodiga tayanadigan va kashf etishga qaratilgan muammoli ta'lim yo'nalishi yuzaga keldi. Muammoli ta'lim texnologiyasining asosi – insonni fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda uning muammolarini aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Muammoli ta'lim uzoq tarixga ega, ammo u XX asrga kelibgina ilmiy-

⁹⁷ Оконь В. Основы проблемного обучения. — Москва: Просвещение, 1968.

nazariy jihatdan bir qadar asoslangan didaktik tizimga aylanib, o'qitish amaliyotiga qo'llana boshlandi. Amerikalik pedagog va faylasuf Jon Dyui bolaga tayyor bilim berishga qaratilgan mavjud o'qitish yo'sinini keskin tanqid qilib, o'qitishning o'zgacha modelini taklif qildi. Unda o'qituvchi o'quvchilari faoliyatini shunday tashkil etadiki, ular o'z oldilariga qo'yilgan muammoni yechish asnosida ham bilim oladilar, ham olgan bilimlarini amaliyotda qo'llashga o'rganadilar.

Muammoli ta'lim yuzasidan yuzlab katta-kichik ilmiy tadqiqotlar qilingan. Adabiy ta'limini muammoli yo'sinda yo'lga qo'yish zahirida bilimlarning o'quvchi tomonidan mustaqil o'zlashtirilishiga erishish, shu orqali ham fikri o'tkir, ham tuyg'ulari nozik shaxs shakllantirish maqsadi yotishiga D. Sladkova⁹⁸, T. Kudryavsev⁹⁹, M. Lesoxina¹⁰⁰, L. Ayzerman¹⁰¹, V. Maransman¹⁰², N. Kudryashov¹⁰³ singari olimlarning tadqiqotlarida atroflicha to'xtalangan. Shu bilan bir qatorda bu mavzuda o'zbek metodistlari: Qunduzoy Husanboeva, va Roza Niyozmetovalar ham o'z qarashlarini yoritib bergani ahamiyatlidir. "Adabiyot darslarida o'quvchilar o'zlashtirishlari lozim bo'lgan bilimlarni o'zlarining kuchi, tafakkuri, bilimi va mehnati bilan o'zlashtirilishini ta'minlash maqsadida bolalar oldiga muammo qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladigan o'qitish jarayonini muammoli adabiy ta'lim deb atash mumkin"¹⁰⁴, – deb yozadi mualliflar. Q. Husanboeva va R. Niyozmetova muammoni: "Muammoli ta'lim asosiga qo'yiladigan, muammoli masala tarzida foydalansa bo'ladigan, o'qish jarayonida muammoli vaziyat hosil qilishga, o'quvchilar orasida tortishuv va fikrlar bahsiga asos bo'ladigan, qarashlar xilma-xilligini keltirib chiqarishga arziydigan ta'limiy masala muammo sanaladi"¹⁰⁵ tarzida izohlashadi. Bu yondashuvda muammoning asosiy belgilari hamda uning oddiy savol yoki topshiriqdan farqli jihatlari ko'rsatib berilgan.

⁹⁸ Сладкова Д. А. Проблемное преподавание литературы в старших классах средней школы. – Казань: Казанский университет, 1967.

⁹⁹ Кудрявцев В. Т. Внедрение принципа проблемности в обучении. – Москва, Высшая школа, 1968.

¹⁰⁰ Лесохина Л. Н. О проблемности урока литературы // Литература в школе, 1965. – № 6.

¹⁰¹ Айзerman А. С. Современный урок литературы и проблемное преподавание. – Москва: Просвещение, 1969.

¹⁰² Маранцман В. Г., Черкасова Т. В. Проблемное изучение литературного произведения в школе. – Москва: Просвещение, 1977.

¹⁰³ Кудряшов Н. И. Взаимосвязь методов обучения на уроках литературы. – Москва: Просвещение, 1981.

¹⁰⁴ Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Innovatsiya-ziyo, 2020. 131-bet.

¹⁰⁵ Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Innovatsiya-ziyo, 2020. 131-bet.

Muammoli ta’lim o’qituvchi bilan o’quvchining birgalikdagi faoliyati orqali yuzaga keladi. Bu jarayondagi asosiy jihat shundaki, o’qituvchi o’quvchilarni muammoli vaziyatga solib, shundan mustaqil ravishda chiqib ketishga yo’naltirishi kerak. Muammoli ta’limning har qanday ko’rinishi uchun xos bo’lgan jihatlar muammoli vaziyat yaratish va muammoni hal qilishdan iborat. Muammoli ta’lim bosqichlarining har birida o’qituvchi va o’quvchilar faoliyatidan kelib chiqqan holda muammoli o’qitishning quyidagi bir necha darajasi borligini quyidagi jadvalda ko’rib chiqamiz:

Daraja	O’qituvchi faoliyati	O’quvchi faoliyati
1	Namuna uchun muammoli vaziyat yaratib, muammoni qo’yib, uni hal qilib ko’rsatadi.	Bu jarayonni kuzatadi va eslab qoladi.
2	O’quv muammosini shakllantirib, muammoli vaziyat yaratadi.	Muammoli vaziyat mohiyatini anglashga kirishadi.
3	O’quvchi oldiga muammo qo’yadi.	Muammoli vaziyatni bartaraf qilib, muammoni hal qiladi.
4	Umumiy tashkilotchilik, rahbarlik va nazoratni amalga oshiradi.	O’zi topgan yechimning to’g’riligini asoslaydi.

Adabiyot darslarida muammoli ta’limni qo’llash o’quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda samarali natija beradi. Buning asosiy sababi shundaki, badiiy asar tahlili jarayonida muammoli savollar o’quvchini faol fikrlashga undaydi. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O’tgan kunlar” romanini o’rganishda “Kumush fojeasi ijtimoiy muhit mahsulimi yoki shaxsiy xarakter natijasimi?” kabi savol o’quvchilarni dalillarga asoslangan bahsga chorlaydi.

Muammoli ta’limni adabiyot darslarida qo’llash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: muammoli vaziyat yaratish; muammoni anglash; yechim izlash; xulosa chiqarish va baholash. Ushbu bosqichlar o’quvchilarda tanqidiy fikrlashning izchillik bilan shakllanishini ta’minlaydi.

Shuningdek, o’qituvchi faoliyati va o’quvchi mustaqilligi darajasiga ko’ra muammoli ta’lim bir necha darajada namoyon bo’ladi. Yuqori darajalarda o’quvchi muammoni mustaqil hal qilib, o’z yechimining to’g’riligini dalillar bilan asoslaydi. Bu esa tanqidiy fikrlashning eng muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Adabiyot darslarida muammoli vaziyatlar yaratishni:

- Said Ahmadning 8-sinf “Adabiyot” darslik-majmuasiga kiritilgan “Ufq” romanidan keltirilgan parcha bo'yicha “Yozuvchi Tursunboyga nisbatan noxolis munosabatda bo'lgan”;

- Abdulla Qodiriyning 9-sinf darsligida berilgan “O'tgan kunlar” romani asosida “Kumush o'z xudbinligining qurboni”;

- To'g'ay Murodning 6-sinf darsligida taqdim etilgan “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi yuzasidan “Bo'ri polvon yaxshi kurashchi-yu, yomon ota”;

- Odil Yoqubovning 6-sinf darsligida taqdim etilgan “Muzqaymoq” hikoyasi asosida Egamberdi Yoqubov davrning emas, o'jarligining qurboni”;

- Pirmqul Qodirovning 6-sinf darsligida berilgan “Avlodlar dovoni” romani asosida “Humoyun uquvsiz, bilimsiz, noshud shahzoda. Shuning uchun ham jangda mag'lubiyatga uchradi” va hokazo o'quvchilarda darhol qarshi munosabat uyg'otadigan, ularni muvozanatdan chiqaradigan, tuyg'ularni junbushga keltiradigan, qahramonlar himoyasiga otilib chiqishga yo'naltiradigan muammolar asosida tashkil etish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, muammoli ta'lim adabiyot darslarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. Muammoli vaziyatlar o'quvchini tayyor bilimlarni qabul qilishdan ko'ra, mustaqil izlanishga, tahlil qilishga va asosli xulosalar chiqarishga undaydi. Natijada o'quvchilarda mustaqil fikrlash, bahs-munozarada ishtirok etish va o'z nuqtayi nazarini himoya qilish ko'nikmalari rivojlanadi. Shu bois adabiyot darslarida muammoli savollar ulushini oshirish, o'quvchi fikrini dalillar asosida baholash va muammoli vaziyatlarga tayangan topshiriqlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur yondashuv ta'lim sifatini oshirish bilan birga, o'quvchilarning intellektual va ma'naviy rivojiga ham xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Оконь В. Основы проблемного обучения. – Москва: Просвещение, 1968.
2. Сладкова Д. А. Проблемное преподавание литературы в старших классах средней школы. – Казань: Казанский университет, 1967.
3. Кудрявцев В. Т. Внедрение принципа проблемности в обучении. – Москва, Высшая школа, 1968.
4. Лесохина Л. Н. О проблемности урока литературы // Литература в школе, 1965. – № 6.
5. Айзерман А. С. Современный урок литературы и проблемное преподавание. – Москва: Просвещение, 1969.

6. Маранцман В. Г., Черкасова Т. В. Проблемное изучение литературного произведения в школе. – Москва: Просвещение, 1977.
7. Кудряшов Н. И. Взаимосвязь методов обучения на уроках литературы. – Москва: Просвещение, 1981.
8. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Innovatsiya-ziyo, 2020.
9. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: Innovatsiya-ziyo, 2020.
10. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh, O‘zbek Adabiyotini o‘qitish metodikasi, Toshkent-2022,